

“AVESTO” KITOBINING TARIXIY VA MA’NAVIY AHAMIYATI**Davlatmurodova Farangiz SHavkat qizi**

Termiz davlat universiteti Pedagogika va Ijtimoiy ish fakulteti

Kutubxona va axborot faoliyati yo‘nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19581772>

Annotatsiya. Ushbu maqola “Avesto”ning qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari tarixidagi o‘rni va ahamiyatini yoritadi. Maqolada “Avesto”ning zardushtiylik dinining muqaddas kitobi sifatidagi ma’naviy merosi tahlil qilinadi. Tadqiqotda “Avesto”ning axloqiy triadasi - “ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” konsepsiyasi o‘rganiladi. Shuningdek, ushbu nodir manbaning YUNESKO tomonidan jahon ahamiyatiga ega meros sifatida e’tirof etilishi haqida ma’lumot beriladi. Maqola “Avesto”ning bugungi avlod tarbiyasidagi dolzarb ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Avesto, Zardusht, axloqiy triada, Ahuramazda, ma’naviy meros.

Annotation. This article highlights the role and significance of the “Avesta” in the history of ancient Central Asian peoples. The study analyzes the spiritual heritage of the “Avesta” as the sacred book of Zoroastrianism. The research examines the moral triad of the “Avesta” – the concept of “good thoughts, good words, good deeds.” Information is provided regarding UNESCO’s recognition of this rare source as a heritage of global significance. The article reveals the contemporary relevance of the “Avesta” in educating the younger generation.

Keywords: Avesta, Zarathushtra, moral triad, Ahura Mazda, spiritual heritage.

Аннотация. Данная статья освещает роль и значение «Авесты» в истории древних народов Центральной Азии. В статье анализируется духовное наследие «Авесты» как священной книги зороастризма. В исследовании изучается нравственная триада «Авесты» – концепция «благая мысль, благое слово, благое дело». Приводятся сведения о признании ЮНЕСКО этого редкого источника наследием мирового значения. Статья раскрывает актуальность «Авесты» в воспитании подрастающего поколения.

Ключевые слова: Авеста, Заратуштра, нравственная триада, Ахурамазда, духовное наследие.

Kirish

“Avesto” - insoniyat sivilizatsiyasi tarixidagi eng qadimiy yozma manbalardan biri bo‘lib, u zardushtiylik dinining muqaddas kitobi sifatida 3000 yildan ortiq vaqt davomida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ushbu nodir asar Markaziy Osiyo, Eron va Ozarbayjon xalqlarining qadimgi davrdagi dunyoqarashi, ijtimoiy tuzumi va ma’naviy madaniyatini o‘rganishning yagona va ishonchli manbai hisoblanadi. “Avesto”ning vatani qadimgi Xorazm ekanligi unda keltirilgan geografik nomlar - Amudaryo (Daiti), Orol dengizi (Vorukasha), Sug‘d, Marg‘iyona va Baqtriya kabi o‘lkalarning tavsifi bilan isbotlangan. Mazkur maqolada “Avesto”ning tarixiy va ma’naviy ahamiyati har tomonlama tahlil qilinadi, uning jahon madaniyatidagi o‘rni va bugungi kundagi dolzarbligi yoritiladi. Shuningdek, ushbu merosni o‘rganish bo‘yicha qo‘llanilgan ilmiy metodologiyalar va zamonaviy yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Maqolaning asosiy maqsadi - “Avesto”ning nafaqat o‘tmishdagi, balki kelajak avlod tarbiyasidagi beqiyos rolini ochib berishdir. “Avesto”ning tarixiy ildizlari miloddan avvalgi II ming yillikka borib taqaladi. Payg‘ambar Zardusht (Zarathushtra) tomonidan asos solingan zardushtiylik ta’limoti dastlab og‘zaki rivoyat shaklida saqlangan.

Keyinchalik, Sosoniylar sulolasi davrida (milodiy III–VII asrlar) ushbu og‘zaki an‘analar yozma shaklga keltirilib, 21 nask (kitob) holida jamlangan. Ushbu nasnlarning har biri muayyan mavzuga - ibodat, marosim, huquq, tibbiyot, astronomiya va axloqqa bag‘ishlangan edi.

“Avesto” so‘zining o‘zi “poydevor”, “asos”, “maqtov” yoki “ilhom” kabi ma‘nolarni anglatadi, bu uning diniy va madaniy hayotdagi markaziy o‘rnini ko‘rsatadi. Tarixiy fojia shundaki, Makedoniyalik Iskandarning harbiy yurishlari (miloddan avvalgi 330-yillar) chog‘ida “Avesto”ning asl nusxalari yoqib yuborilgan yoki yo‘q qilingan. Sosoniylar davrida qisman qayta tiklangan bo‘lsa-da, arablar istilosi (VII asr) natijasida yana katta talofotlar yuz berdi.

Bizgacha yetib kelgan qismlar - “Yasna” (asosiy ibodat matnlari), “Vispered” (barcha ruhoniylarga bag‘ishlangan qism), “Vendidad” (jinlarga qarshi qonunlar to‘plami) va “Yashtlar” (xudolarga madhiyalar) - asarning atigi yettidan bir qismini tashkil etadi. “Kichik Avesto” (Xurdak Avesto) esa dindorlarning kundalik ehtiyojlari uchun yaratilgan ixchamlashtirilgan variantdir.

“Avesto”ning eng qadimgi va muqaddas qismi “Gatlar” hisoblanadi. Bu Zardushtning o‘zi tomonidan yozilgan 17 ta diniy qo‘shiq bo‘lib, ular o‘ziga xos arxaik shevada - “gatik avesto” tilida ifodalangan. “Gatlar”da yagona xudo Ahuramazdaga bo‘lgan chuqur ishonch, ezgulik va yomonlik o‘rtasidagi abadiy kurash hamda insonning o‘z tanlovi orqali bu kurashda faol ishtirok etishi haqidagi falsafiy g‘oyalar aks etgan. “Gatlar”ning tili va mazmunining arxaikligi ularning boshqa qismlardan farqli ravishda ancha qadimiy ekanligini isbotlaydi.

Zamonaviy tilshunoslik tadqiqotlari “avesto” tilining qadimgi eroniy lahjalar guruhiga mansubligini aniqlagan, bu esa ushbu tilning hozirgi forsiy, pushtu, shuningdek, o‘zbek tilidagi ba‘zi qadimiy so‘zlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. “Avesto”ning asosiy falsafiy g‘oyasi - bu dualistik dunyoqarashdir. Unga ko‘ra, olamda ikki asosiy kuch abadiy kurash olib boradi: yorug‘lik va ezgulik xudosi Ahuramazda (Ormuzd) hamda zulmat va yovuzlik timsoli Anxramaynu (Ahriman). Bu ikki kuch o‘rtasidagi kurash nafaqat tabiatda, balki inson qalbida ham davom etadi. Inson erkin irodaga ega bo‘lib, u o‘z tanlovi orqali qaysi tomonga borishini belgilaydi. “Avesto” ta‘limotiga ko‘ra, dunning oxirida Ahuramazda g‘alaba qozonadi, yovuzlik yo‘q qilinadi va o‘liklar tiriladi. Bu g‘oya keyinchalik dunyoning boshqa dinlari - iudaizm, nasroniylik va islomdagi qiyomat va oxirat tushunchalariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan.

“Avesto”ning insoniyatga bergan eng ulkan ma‘naviy merosi bu axloqiy triada - “ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” (Humata, Hukhta, Huvarshta) tamoyilidir. Ushbu uch qirrali mezon inson hayotining barcha sohalarini qamrab oladi. Ezgu fikr - pok niyat, rahmdillik, haqiqatsevarlik va ilmsizlikka qarshi kurashni anglatadi. Ezgu so‘z - yolg‘on, g‘iybat, tuhmatdan saqlanish, to‘g‘ri va samimiy nutqni talab qiladi. Ezgu amal - mehnatsevarlik, yordam berish, adolatli bo‘lish va tabiatni asrash kabi amaliy xulq-atvorni o‘z ichiga oladi. Ushbu triada oddiy va tushunarli shaklda bo‘lishiga qaramay, u chuqur falsafiy asosga ega: fikr, so‘z va amalning birligi inson shaxsining yaxlitligini ta‘minlaydi. “Avesto”da tabiatni asrash alohida muqaddas vazifa sifatida qaraladi. To‘rt muqaddas unsur - yer, suv, havo va otash (alangani ifodalaydi) ifloslanishdan saqlanishi kerak. Suvga tupurish, daryo yoki buloqni ifloslantirish, otashni o‘chirish yoki murdani yerga ko‘mish (bu yerni ifloslantiradi deb hisoblangan) qattiq gunoh hisoblangan. Bu g‘oyalar bugungi ekologik muammolar - global isish, suv tanqisligi va havoning ifloslanishi - fonida juda dolzarb bo‘lib qolmoqda. “Avesto”dagi ekologik tarbiya tamoyillari zamonaviy yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish konsepsiyalari bilan uyg‘unlik kasb etadi.

Tabiatni asrash insonning ezgu amalining eng muhim qismi sifatida talqin qilingan.

Zamonaviy “Avesto”shunoslikda sinergetik, germenevtik va strukturalistik metodologiyalar keng qo‘llanilmoqda. Sinergetik yondashuv “Avesto”dagi dunyo haqidagi tasavvurlarni - yaxlitlik va xilma-xillik, tartib va betartiblik dialektikasi -zamonaviy fan nuqtai nazaridan qayta talqin qilish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, “Avesto” falsafiy g‘oyalari (borliqning yaxlitligi, dunyoning moddiy va ma’naviy shakllarining o‘zaro aloqasi, potensial va virtual borliq haqidagi tushunchalar) sinergetikaning asosiy kategoriyalari - o‘z-o‘zini tashkil etish, dinamik muvozanat, tartibning betartiblikdan vujudga kelishi - bilan mos keladi. Bu esa “Avesto”ni nafaqat tarixiy, balki falsafiy jihatdan zamonaviy ilmiy tafakkur bilan uyg‘un deb hisoblashga asos beradi. Germenevtik tahlil usuli “Avesto” matnlarini muallif (Zardusht yoki uning izdoshlari) niyatini, tarixiy kontekstni va zamonaviy o‘qiruvchining tushunchalarini birlashtirgan holda yangicha talqin qilish imkonini beradi. “Avesto”dagi mifologik timsollar va ramzlar - Yima shohning oltin asri, olam daraxti, Jamshid toji, Veretragna (g‘alaba xudosi) va Anahita (suv va unumdorlik ma’budasi) - germenevtik kalit yordamida ochiladi. Masalan, “Vendidad”da tasvirlangan to‘fon va muzlik davri haqidagi rivoyatlar keyingi dunyo xalqlari - yahudiylar (Nuh to‘foni), hindlar (Manu to‘foni), yunonlar (Devkalion to‘foni) - mifologiyasiga qanday ta’sir ko‘rsatganligi aniq ko‘rinadi. Bu esa “Avesto”ning jahon sivilizatsiyasidagi o‘rnini yanada oshiradi.

Avesto (parfiyoncha: apastak - matn; ko‘pincha „Zend-Avesto“, ya’ni „tafsir qilingan matn“ deb ataladi) - jahon madaniyatining, jumladan, Markaziy Osiyo va Eron xalqlari tarixining qadimgi noyob yodgorligi; dinining Muqaddas kitoblari to‘plami. Zardusht diniga amal qiluvchilarning muqaddas kitobi sifatida Yagona Tangriga topinish shu ta’limotdan boshlangan.

Bu kitob tarkibi, ifoda uslubi va timsollar tizimi bilan adabiy manbalarga yaqin turadi. „Avesto“da tilga olingan joy nomlari (Varaxsha, Vaxsh)dan kelib chiqib, uning Amudaryo sohillarida yaratilgani aniqlangan. Shu asosda uning vatani Xorazmdir degan qarash mavjud. „Avesto“ oromiy va pahlaviy yozuvlari asosida yaratilgan maxsus alifboda dastlab to‘qqizta ho‘kiz terisiga yozilgan. Ilk nusxalari asosida sosoniylar (miloddan avvalgi IV-VIII-asr) davrida 21 kitob holida yig‘ilgan, bizgacha ularning chorak qismi (4 dan 1 qismi) yetib kelgan.

Tiklangan matnga „Zand“ nomi bilan sharhlar bitilgan. Avesto“ to‘rt qismdan iborat: Yasna („Diniy marosimlar“), Yasht (ma’no jihatdan Yasnaga yaqin), Visparad („Barcha ilohlar haqidagi kitob“), Vendidad („Yovuz ruhlarga qarshi qonunlar majmuasi“). Yasna tarkibiga kirgan madhlar „Gatlar“ (ayrim manbalarda „gohlar“) deb nomlanib, ularni Zardushtning o‘zi yozgan deb taxmin qilinadi. Gatlar tarkibida Jamshid (Yima), Gershasp, Afrosiyob (Alp Erto‘nga) kabi afsonaviy qahramonlar hayoti lavhalari uchraydi. „Avesto“ insoniyat sivilizatsiya tarixining ilk sahifalarini tashkil etgani uchun jahon olimlarining e’tiborini tortgan. U haqda F.Nitsshe, F. Shpigel, A. Mayllet, V. Bartold, E. Bertels, Yan Ripka, O. Makovelskiy, I. Braginskiy va boshqa xorijiy olimlarning tadqiqotlari mavjud. Ko‘pchilik tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, A. O‘rta Osiyoda, xususan Xorazmda miloddan avvalgi 1-ming yillikning 1-yarmida vujudga kelgan. A.da keltirilgan geografik ma’lumotlar ham buni tasdiqlaydi. Masalan, Xudo yaratgan o‘lkalar sanab o‘tilar ekan, boyligi va ko‘rkamligi jihatidan qadimgi Xorazm, Gava (Sug‘d), Marg‘iyona (Marv), Baqtriya (Balx) birinchi bo‘lib tilga olinadi, Orol dengizi (Vorukasha yoxud Vurukasha) va Amudaryo (Daiti) tavsiflanadi. A.dagi xalqning dastlabki vatani Sirdaryo, Amudaryo etaklari va Zarafshon vodiysi bo‘lgan. A. uzoq vaqt mobaynida shakllangan. Unda keltirilgan ma’lumotlarning eng qadimgi qismlari miloddan avvalgi 2-ming yillik oxiri- 1-ming yillik boshiga oid bo‘lib, og‘zaki tarzda avloddan-avlodga o‘tib kelgan.

Keyingi asrlarda tarkibiga turli diniy urf-odatlar bayoni, axloqiy, huquqiy qonun-qoidalar va hokazo qo'shilib borgan. A.ni Zardusht diniy asar sifatida bir tizimga solgan. Dastlabki yozma nusxasi esa 12 ming mol terisiga bitilgan deb rivoyat qilinadi. U Persepolaa saqlangan.

Aleksandr (Makedoniyalik Iskandar) Eronni zabt etganda, bu nusxa kuydirib yuborilgan.

Arshakiylardan Vologes I davri (51-78)da qayta kitob qilingan, lekin u saqlanmagan.

Sosoniylar davri (III-VII asr)da yaxlit kitob holiga keltirilgan. A. 21 nask (qism)dan iborat bo'lgan. A. hajmi katta kitob bo'lganligi sababli dindorlar kundalik faoliyatida foydalanish uchun uning ixchamlashtirilgan shakli - „Kichik A.“ (Xurdak A.) yaratilgan. Arablar Eronni fath etgach (VII asr) Zardusht dini ruhoniylarining bir qismi Hindistonga ko'chib o'tgan. Ularning avlodlari (parslar) Bombay shahrida o'z jamoalarida hozirgacha A.ning asl nusxasini saqlab keladi. Fransuz tadqiqotchisi Anketil Dyuperron Zardusht izdoshlari jamoasida yashab, A. tilini va yozuvini urganib, uni tarjima qilib nashr etgan (1771). A.ning bu nusxasi 27 jilddan iborat bo'lib, asarning yettidan bir qismidir. U Yasna, Vispered, Vendidad, Gatlar va Yashtlar nomi bilan yuritiladigan kitoblarni o'z ichiga oladi. Avestoda bayon etilgan g'oyalarga ko'ra, olam ikki asosning, ikki ibtidoning, ya'ni yorug'lik bilan zulmatning, yaxshilik bilan yomonlikning tuxtovsiz kurashidan iborat. Yaxshilik va ezgulik Xudosi Ahuramazda yer, o'simlik va boshqa hamma tabiiy boyliklarni yaratgan. Yomonlik va yovuzlik timsoli Anxramaynu Ahuramazdaga qarshi to'xtovsiz kurashadi, ammo uni yengishga ojizlik qiladi. Bu kurash abadiy davom etadi.

Yaxshilikni ifodalovchi kuchlar osmonda, yomonlikni ifodalovchi kuchlar yer ostida joylashgan, yer sathi esa kurash maydonidir. Hayotdagi turfa o'zgarishlar qaysi kuchning g'alaba qilishiga bog'liq. Inson ham tana va ruhning, axloq esa yaxshi va yomon xulqning o'zaro kurashidan iborat. Cheksiz, abadiy fazo va vaqt ham ikki qarama-qarshi qismdan: yaxshilik va Ahuramazda hukmron bo'lgan abadiy yorug'lik bilan yomonlik va Anxramaynu hukmron bo'lgan abadiy zulmatdan tashkil topadi. Avesto ta'limotiga ko'ra, birinchi inson Govamard (ho'kiz-odam; forsha Qayumars) bo'lib, undan barcha kishilar tarqalgan. Birinchi shoh Yima davri oltin davr hisoblangan, chunki unda o'lim bo'lmagan, Ahuramazda doimiy bahor yaratgan.

Kishilar bekamu kust, baxtiyor yashagan. 900 yil utgach shoh Yima g'ururga berilib, man etilgan sigir go'shtini yeydi va yovuzlik ramzi Anxramaynu hukmidagi kuchlar bosh ko'taradi.

Olamni muzlik qoplaydi. Yima Ahuramazda amri bilan odamlar va hayvonlarni sovuqdan saqlab qolish uchun qo'rg'on (var) qurib, unga har bir jonzotdan bir juftini joylashtirgan.

Insoniyat tarixining ilk oltin davri tugagach, Hayr bilan Sharr (yaxshilik va yomonlik) o'rtasidagi kurash davri bo'lgan ikkinchi davr boshlangan. Uchinchi davrda Ahuramazda g'alaba qilib, ezgulik salta-nati barqaror bo'ladi, o'lganlar tiriladi. A.ning axloqiy-falsafiy mohiyati „ezgu fikr“, „ezgu so'z“ va „ezgu amal“ Muqaddas uchlik (axloqiy triada)da o'z ifodasini topadi.

Zardusht izdoshlarining ibodat oldidan aytiladigan niyati, so'zlari shu 3 ibora bilan boshlanadi. A. o'zbek, umuman O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining qadimgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to'g'risidagi tasavvurlari, urf-odatlari, ma'naviy madaniyatlarini o'rganishda muhim va yagona manba. Bu nodir kitob bundan 300 yil muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrgo'zaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir“ (I. A. Karimov, „Adolatli jamiyatsari“. T., 1998, 39-40-betlar). O'zbekiston hukumatining tashabbusi bilan YUNESKO Bosh konferensiyasi 30-sessiyasi „Avesto“ yaratilganining 2700-yilligini dunyo miqyosida nishonlash haqida qaror qabul qildi (1999-yil noyabr). „Avesto“ning jahon madaniyati va dinlar tarixida tutgan o'rnini hisobga olgan holda hamda yuqoridagi qarordan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi maxsus qaror e'lon qilib (2000-yil 29-mart), „Avesto“ning

2700-yilligini nishonlash tadbirlarini belgiladi. Unga ko'ra 2001-yilning oktabr oyida O'zbekistonda xalqaro ilmiy kon-ferensiya va tantanali bayram tadbirlari o'tkaziladi. Ad: Kadirov M., Otrivki iz Avesti (perevod), Materiali po istorii obshe-stvenno-filosofskoy misli v O'zbekistane, T., 1976; Makovelskiy A. O., Avesta, Baku, 1960; Sagdullayev A. S., Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda, T., 1997. Muhammadjon Hodirov.

Xulosa

“Avesto” Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi tarixi, tili, dini va madaniyatini o'rganishda yagona va ishonchli yozma manba hisoblanadi. “Avesto”ning axloqiy triadasi - “ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal” - bugungi globallashuv davrida yosh avlodni ma'naviy tarbiyalashning asosiy mezonlaridan biri sifatida xizmat qilishi mumkin.

Sinergetik va germenevtik metodologiyalar “Avesto” falsafiy g'oyalarini zamonaviy ilmiy tafakkur nuqtai nazaridan qayta talqin qilish imkonini beradi. “Avesto” nafaqat o'tmish merosi, balki kelajak avlodlar uchun ezgulik, adolat va insonparvarlik g'oyalarini targ'ib qiluvchi ma'naviy manbadir. YUNESKO tomonidan “Avesto”ning 2700 yilligining jahon miqyosida nishonlanishi ushbu nodir asarning umuminsoniy ahamiyatini tan olishning yorqin ifodasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Avesto” - O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2024.
2. Qayumov A. “Avesto” - qadimgi xalqlarimizning buyuk merosi. Toshkent: Fan, 2000.
3. Is'hoqov M. “Avesto” falsafasi va zamonaviy sinergetika. Toshkent: Sharq, 2019.
4. Homidov H. Zardushtiylik va “Avesto”: tarixiy-falsafiy tahlil. Samarqand: Zarafshon, 2015.
5. Boyce M. A History of Zoroastrianism. Leiden: E.J. Brill, 1975-1982 (3 volumes).
6. Bartholomae C. Altiranisches Wörterbuch. Strassburg: Trübner, 1904.
7. Anquetil-Duperron M. Zend-Avesta, ouvrage de Zoroastre. Paris: Tilliard, 1771.
8. UNESCO. “The Avesta and its 2700th Anniversary”. UNESCO World Heritage Documents, Paris, 2001.